
Bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishda tez aytishlarning milliylikka xos xususiyatlari

Adizova Obodon Istamovna

o.i.adizova@buxdu.uz

f.f.d.(DSc), Professor,

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya *Maqolada bolalar folklorining boyligi va mavzuiy rang-barangligi bilan folklorshunoslikda muhim o'rin egallashi ta'kidlangan. Bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishda tez aytishlarning milliylikka xos xususiyatlari haqida fikr bildirilgan. Har biri o'ziga xos xususiyati, genezisi, an'anaviylik asoslari, ijro etilish tarzi, badiiyati, obrazlar olami, motivlar strukturasi kabi jihatlari ochib berilgan. Bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishda kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining uyg'unlashuvida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlar va tez aytishlar ning butun bir tizimidan tarkib topganligi haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar *Adabiyotshunoslik, madaniyat, yondashuv, bolalar folklori, mavzuiy rang-barang, folklorshunoslik, o'ziga xos xususiyati, tez aytishlar, genezisi, an'anaviylik asoslari, ijro etilish tarzi, badiiyati, obrazlar olami, kichkintoylar uyg'unlashuvi, o'yinlar, poetik janr*

Национальные особенности скороговорок в обучении детей правильному произношению

Адизова Ободон Истамовна

o.i.adizova@buxdu.uz

Доктор филологических наук (DSc),

Профессор,

Бухарский государственный университет

Аннотация *В статье подчёркивается значение детского фольклора в фольклористике, обусловленное его богатством и тематическим разнообразием. Рассматриваются национальные особенности рифмовок в обучении детей правильному произношению. Каждая из них имеет свои особенности, генезис, основы традиции, манеру исполнения, художественность, образный мир и структуру мотивов. Сообщается, что правильное произношение детей – это целая система игр, песен и рифмовок, возникших в процессе взаимодействия детского мира с миром взрослых.*

Ключевые слова *Литературоведение, культура, подход, детский фольклор, тематическое разнообразие, фольклор, уникальные особенности, быстрые поговорки, генезис, основы традиции, стиль исполнения, искусство, мир образов, детская адаптация, игры, поэтический жанр*

National Features of Tongue Twisters in Teaching Children Correct Pronunciation

Adizova Obodon Istamovna

o.i.adizova@buxdu.uz

Doctor of Philology (DSc), Professor,

Bukhara State University

Annotation *The article emphasizes the importance of children's folklore in folklore studies, due to its richness and thematic diversity. It examines national features of rhymes in teaching children correct pronunciation. Each of them has its own characteristics, genesis, foundations of tradition, manner of performance, artistry, figurative world and structure of motives. It is reported that correct pronunciation of children is a whole system of games, songs and rhymes that arose in the process of interaction of the children's world with the world of adults.*

Keywords *Literary criticism, culture, approach, children's folklore, thematic diversity, folklore, unique features, quick sayings, genesis, foundations of tradition, performance style, art, world of images, children's adaptation, games, poetic genre*

Kirish

Bolalar folkloridagi ertaklar, erkalama, ovutmachiq, sanama, tegishmachiq, tez aytish kabi janrlar bilan bolalar o'yinlarining mavzuiy-shakliy tasnifining o'ziga xos belgi-xususiyatlarini ko'rsatib berish lozim. Topishmoq, maqol, matal va boshqa folklorning kichik janrlari og'zaki ijodning badiiy ijod sifatida shakllanish jarayonida asta-sekinlik bilan paydo bo'lgan. Ulardan biri tez aytishlar bo'lib, ular ayrim nutq tovushlarining bir necha marta takrorlanishi yoki tovushlarni so'z va iboralar tarkibida talaffuzi qiyinlashtirilgan darajada joylashishiga asoslanadi. Ayniqsa, bu iboralar tez aytilayotgan paytda, aytuvchi murakkab tovushlarni talaffuz qila olmasdan yanglishib ketishi tinglovchilarning beozor kulgisiga sabab bo'ladi. Tez aytishlar bolalar folklori tarkibiga nisbatan keyin qo'shilgan janr hisoblanadi. O'zbek olimlarining fikricha, tez aytishlar avvallari alohida janr sifatida «tatal», «chalg'ituv», «chalish», «adashish» atamali bilan mashhur bo'lgan. «Tez aytish» esa nisbatan keyingi atamadir. O'zbek tilida bu iboralarning tez aytish deb atalishi ham shu ta'rifga asoslangan.

Tez aytish istiloh sifatida janrning birgina xususiyatini bir nafasda shiddat bilan aytilishinigina ifoda etsa-da, tez aytishdan kuzatiladigan maqsad nimaligini anglatmaydi. Shunday cheklanganlikka egaligiga qaramay,

ruscha «skorogovorka» istilohining tarjima ekvivalenti sifatida ilmiy taomilga singib ketgan.

O'zbek tilida mavjud turli atamalarda tez aytishdan kuzatiladigan ikki maqsad bo'rtib ko'rinib turadi. Birinchisi – chalgitish, so'zda chalish yoki adashish deyilishi boisi shundan. Ikkinchisi – tez ayta turib chalishish tutilishga teng. Shu sababli "tatal" deyilgan. Biroq chalgitish ham, chalishish ham, adashish ham, tutilish ham o'xshash tovushlardan iborat so'zlar, aniqrog'i, alliteratsiya zamiridagi so'zlar qatorini shiddat bilan bir nafasda aytish negizida voqe bo'lganligi tufayli tez aytish yetakchi xususiyatga aylanib, folklor hodisasini ifodalovchi istiloh darajasida barqarorlik kasb etgan.

"Ota-bobolarimiz bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish va duduqlikdan saqlash uchun talaffuzi qiyin, hamohang so'zlardan tuzilgan jummalarni yoddan aytishga majbur qilar edilar. Aslida, bu yod aytishlar pedagogik mashqlar bo'lib, topishmoq yoki boshqotirma shakliga ega edi va aqlni ham, nutqni ham charxlashga xizmat qilgan (Qurbonova, 1994).

Aytish kerakki, Fransiyada ham duduqlanmasdan tez aytishga mo'ljallangan qoliplar ilgari ham mavjud bo'lgan, hozir ham bor, keyin ham keng qo'llanilib borilaveradi. Fransuzlarda mazkur janr ilgari «virelengos» deb nomlangan. Hozirgi paytda ham bu «virolengos», «virelangue ou «toumelangue»

(til aylantirmoq)» kabi so'zlar orqali qo'llanilayapti.

Asosiy qism

Bu janr assonans va alliteratsiyaga asoslangan jumalarni tez, bir necha marta takrorlash mahoratiga nisbatan qo'llaniladi. Ya'ni: «tilni og'izda uch marta, yetti marta yoki ko'p marta aylantirishni bilish kerak», – deb ta'kidlaydi Remi Dor (Dor Remy, 2005). U "Sarah-Rose la rosophile: virelangues d'Ouzbekistan" kitobining kirish qismini tez aytish san'atiga ta'rif bergan. Avvaliga turkiy xalqlardagi, keyinroq esa fransuz tilidagi asoslarni keltirgan. Uning ma'lumotiga ko'ra, juda qadimdan mavjud bo'lgan ushbu janr Fransiyada XIX asr oxiriga qadar hech qanday nomsiz qo'llanilib kelgan. Remi Dor kitobining kirish qismida ushbu san'atga Fransiyada ilk bor nom bergan Tarn-Garon arxeologik jamiyatining taniqli vakili Antuan Perboks keltirgan mukammal ta'rifni keltirgan: "Otabobolarimiz bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish va duduqlikdan saqlash uchun talaffuzi qiyin, hamohang so'zlardan tuzilgan jumalarni yoddan aytishga majbur qilar edilar. Aslida, bu yod aytishlar pedagogik mashqlar bo'lib, topishmoq yoki boshqotirma shakliga ega edi va aqlni ham, nutqni ham charxlashga xizmat qilgan". (Dor Remy, 2005)

Tez aytish xalq og'zaki ijodining eng ko'p tarqalgan va muhim janrlaridan biridir. Tez aytishlar aslida kattalar og'zaki ijodiga xos bo'lsa-da, mohiyatan bolalar nutqidagi kemtikliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Bolalar tez aytish vositasida o'z ona tillaridagi tovush va so'zlarni ravon, burro, ochiq talaffuz etishni, tovushlarning ohangdorligini, so'zlarning nozik ma'no tovlanishlarini his va idrok qilish, anglash hamda ilg'ab olishni mashq qiladilar. Shu ma'noda ular tovush va so'z ustidagi poetik-mantiqiy mashqlar hisoblanadi.

Tez aytishlar bolalar ma'naviy ehtiyojlariga mosligidan ularni tezgina o'zlashtira borganlar, asta-sekinlik bilan o'zlari ham ularning bir qator yengil va oddiy namunalarini ijod qila boshlaganlar. Natijada

davrlar o'tishi bilan tez aytishlar bolalar folklori maydoniga o'tib qolgan. Zotan, tez aytish nutq tovushlari alliteratsiyasiga asoslanuvchi folklor janri bo'lib, o'xshash tovushli so'zlar yoki so'z birikmalarining bir nafasda shiddatli aytilishi jarayonida u yoki bu tovush yo so'z talaffuzida chalg'ish natijasida voqe bo'luvchi ma'no o'zgarishi negizida yuzaga keladi. Shu xususiyati tufayli o'tmishda tez aytish kattalar repertuarida uchragan va aksariyat holatlarda parnografik xarakterga ega bo'lgan. Bora-bora katta yoshli bolalar va o'smirlar repertuariga ko'chgan. Ular bu xildagi tez aytishlarni o'yin shartiga aylantira borishgan, kim uni to'g'ri aytolmasa, chalishsa, o'sha yutqizgan sanalib, g'oliblar qo'ygan shartni bajargan yoki o'yinda navbatda (galda) turgan. Tez aytishlar orasida 34, hatto 47 so'zli namunalari borki, ularni aytishda 7-12 yoshdagi bolalar nafasi etmaydi. Binobarin, aytish mumkinki, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida katta yoshdagi bolalar repertuariga o'tish jarayonida tez aytishlarda parnografik xususiyat so'na boshlagan. Bunda, ayniqsa, o'sha davrda kuchaya boshlagan ma'rifatparvarlik harakati ta'siri muhim rol o'ynagan. Xususan, ta'lim jarayonida ulardan foydalanish istagi kichik va o'rta yoshdagi bolalar repertuariga o'tishiga yo'l ochgan.

Tez aytishda poetik ritm istak ohangiga ega. Umuman, nasriy tez aytishlarda poetik ritm xilma-xil ohanglarni (gumon, so'roq, buyruq, xabar) ifodalashi mumkin. Bu xususiyat ham she'riy, ham nasriy tez aytishlar uchun mushtarak bo'lib, ularning mazmundorligini, g'oyaviyligini ta'minlagan. Bunda talaffuzning aniq va ochiqligiga, poetik taktga, mantiqiy urg'uga alohida e'tibor berish zarur. Shularning birortasiga rioya qilinmasa, o'sha zahoti ritmdan chiqib ketadi, ma'no yoki mazmunda mantiqsizlik yuzaga keladi.

Qadimgi tez aytishlardagi so'zlarning ko'pligi bu fikrning to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi. Gap shundaki, tez aytish qoidasida namuna to'liq aytib bo'linmagunicha nafas olish mumkin emas. Son jihatdan shu qadar ko'p so'zli tez aytishlar borki, ularni yosh bola ayta

olmaydi. Shuning uchun bu tez aytishlar avvaliga katta yoshdagi odamlar o'rtasida keng tarqalgan bo'lishi mumkin degan xulosaga kelingan. Tez aytishning ikkinchi qoidasi matndagi tovushlarni aniq talaffuz qilish kerakligi bilan belgilanadi (Adizova, 2023). Tez aytish hozirgi paytda bolalarning ayrim tovushlarni talaffuz qilishdagi kamchiliklarini yo'qotish jarayonini tezlashtiradi. Masalan, ko'pincha bolalar «r» tovushi talaffuzida qiynalishadi: «l» tovushi bilan chalkashtirishadi. Shuning uchun tez aytishdagi bir nafasda matnни to'liq aytib bo'lish qoidasidan qat'i nazar «r» va «l» tovushlari talaffuzini to'g'ri amalga oshiruvchi tez aytishlarni ularga o'rgatish foydalidir:

Charxim chakalak,
Tanobi charxim chakalak.
Charximda gunoh yo'g'u,
O'zim hakalak.

Shuningdek, faqat «R» tovushi talaffuziga bag'ishlangan matnlardan ham foydalanish mumkin: «Bir tup tut, bir tup tutning tagida bir tup turp. Bir tup tut, bir tup turpning tomirini turtib turibdi. Bir tup turp, bir tup tutning tomirini turtib turibdi. Bir tup tutning tomirini turtib turgan bir tup turpning tomirini bir tup tutning tomiri turtib turibdi. Bir tup turpning tomirini turtib turgan bir tup tutning tomirini bir tup turpning tomiri turtib turibdi».

Albatta, so'z soni jihatidan ko'p bo'lgan tez aytishlarni bolalar ijro qilishga qiynalishlari mumkin. Shuning uchun kichik matnli tez aytishlardan boshlash ma'qul hisoblanadi:

«Bir tup tut, To'rt tup turp».
Yoki:

«Oq choynakka ko'k qopqoq,
Ko'k choynakka oq qopqoq».

Ta'kidlash lozimki, xalq orasida ko'p so'zli tez aytishlar ijrosi kengroq ommalashgan. Ularning matnlarida yumor belgilari ham singdirilgani uchun tinglovchilarda alohida qiziqish uyg'otadi.

Tez aytish bolaning tilini ravon, burro qilishdan tashqari, aqliga aql qo'shadi, ongini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi, ota-onasiga, el-yurtiga, o'zini qurshab olgan

olamga nisbatan mehr-muhabbatini oshiradi. Boshqacha ibora bilan aytganda, yangi avlod har gal o'zidan avvalgi avlodlar kashf etgan narsalarni hisobga oladi va o'zlashtiradi.

Tez aytishni qayta-qayta mashq qildirish, berilgan matnни osongina diliga, tiliga jo qilib olish har tomonlama foyda so'z o'yini bilan ijro etiladigan har bir tez aytish zamirida bir nechta vazifalar yotgan bo'ladi. Shulardan birinchisi qayta-qayta mashq qilish, tinimsiz takrorlash natijasida bolaning nutqi chiqadi, tili ravon bo'ladi. Bularning hammasi yig'ilib bola tarbiyasiga bog'lanadi. Bola dunyoga kelishi bilanoq uning kelajakda komil inson bo'lib o'sishi uchun mana shunday chora-tadbirlarni qo'llashga to'g'ri keladi. Aks holda, bu ish kechiktirilsa, ko'zlangan natija chiqmay qolishi mumkin. Bunday namunalar xalqning faqat til boyligiga emas, so'zlarning tiniq talaffuziga ham katta e'tibor bilan qaraganligini dalillaydi.

Tez aytishlarni o'rgatish zamirida ikki xil pedagogik maqsad yotadi. Birinchidan, bolalarni talaffuzi qiyin bo'lgan tovushlarni to'g'ri aytishga o'rgatish, ikkinchidan har bir tovushni, ayniqsa, talaffuzi o'xshash tovushlarni bir-biridan farqlashni bildirish. Bu turdagi tez aytishlarning xarakterli jihatlaridan biri, atoqli otlarning ko'p qo'llanishidir. Ohangdosh tez aytishlar ko'proq kichik yoshdagi (5-8 yosh) bolalarga mo'ljallangan bo'lib, ota-onalar yoki o'qituvchi tomonidan o'rgatilishi mumkin:

Asliyat: Abror bilan Asror Ahror akasini anhorda ko'rdi.

Tarjimasi: Abrar et Asrar aperyurent leur aine Ahrar entraine dans l'abrevoir.

Talaffuzi qiyin tez aytishlar undosh tovushlarning ketma-ket kelishidan iborat. Bunda e'tibor ketma-ket kelgan old qator yoki orqa qator undoshlarini bexato aytishga qaratilgan.

Tez aytishlar qarama-qarshi sintaktik shakllar (bo'lishli/bo'lishsiz, darak/so'roq) yordamida tuzilgan. Katta yoshli (8-12) bolalarga mo'ljallangan bu tez aytishlarda so'zlar ma'no jihatdan xam qarama-qarshi qo'yiladi. Grammatik puxta o'ylangan bu tez

aytishlarda tovush, so'z ketma-ketligidan jumlar ketma-ketligiga o'tiladi. Bularning hammasi jamlanib so'z o'yinli tez aytishlarni tashkil qiladi. So'z, jumla ketma-ketligidan matn ketma-ketligiga o'tiladi.

Tez aytishlar, qadimdan, notiqlik – ritorika san'atini o'qitishda katga rol o'ynagan. Yoshlik chog'ida tili biroz nuqsonli bo'lgan notiq o'smirlik davridan chiroyli so'zlash san'ati – ritorikani o'rganishni boshlagan (Ruzmetov, 2005).

Ba'zan o'quvchi yozish ko'nikmalarini tez o'zlashtirishi mumkin, biroq talaffuz me'yorlarini egallash biroz qiyin kechadi. Bunday holatda, til mashqlarini ko'p bajarish o'quvchining talaffuz malakasini mustahkamlaydi. Tez aytish til mashqi sifatida nutqning har qanday tempida uning ravonligini ta'minlash vositasidir.

Aslida fransuz tili juda tez talaffuz qilinadigan til bo'lib, ritmik guruhdagi deyarli barcha so'zlar bir-biriga bog'lanib talaffuz qilinadi. Talaffuzi qiyin tez aytishlar bilan mashq qilish muammo yechimiga biroz yordam bo'ladi:

Aslyat: Osmonda ikkita kalxat: biri oq dumi kalta kalxat, biri qora dumi kalta kalxat; oq dumi kalta kalxat qora dumi kalta kalxatga xalaqit beradi; qora dumi kalta kalxat oq dumi kalta kalxatga xalaqit beradi.

Remi Dor tarjimasini: Dans le ciel deux milans: un milan a courte queue blanche, un milan a courte queue noire; le milan a courte queue blanche barre la route au milan a route queue noire, le milan a courte queue noire barre la route au milan a route queue blanche.

O'zbek tilida ham o'quvchilar tez aytishni takrorlashga biroz qiynalishadi, biroq avval sekin, bo'g'inlab, so'ng biroz tezroq va davomiy takrorlash maqsadga muvofiq bo'ladi. So'ng uning fransuzcha tarjimasiga o'tiladi:

Mana shu tarzda fransuz tilini o'rganish jarayonida milliy tez aytishlarimizning tarjimalaridan foydalanish o'quvchilarda motivatsiyani yanada oshiradi. Bir xil so'zlarning turli vaziyatlarda qo'llash orqali yoki omonimlardan tuzilgan tez aytishlar o'quvchilar o'rtasida samimiy musobaqa tusini uyg'otadi, uni takror va takror o'qishlariga ilhomlantiradi.

Ko'rinadiki, bolalar og'zaki ijodi folklorning alohida bir tarmog'i bo'lib, u kattalarning ta'siri yoki nazoratisiz bolalarning boshqa bolalarga o'tkazgan faoliyati bilan bog'liq. Bolalar folklorida og'zaki, moddiy va urf-odatlarining barcha standart folklor janrlaridan asarlar mavjud. Bularni ajratib turadigan muhim belgi – ularning boladan bolaga o'tishidir (Avezov, 2004). Chunki, bolalik – bu ijtimoiy guruh bo'lib, u yerda bolalar o'z an'analarini o'rgatadi, o'rganadi va baham ko'radi, kattalar ixtiyoridan tashqari ko'cha madaniyatini namoyon etadi. Bunda bolalarning ijtimoiy guruhi kattalar ijtimoiy guruhlarning hosilasi sifatida emas, balki o'z shartlari asosida o'rganiladi. Bolalar madaniyati o'ziga xos ekanligi ko'rinadi. Bolalar folklori faqat bolalar orasida tarqaladi. U bolalarga kattalar tomonidan o'rgatilganlarnigina o'z ichiga olmaydi, balki bolalar o'rgangan narsalarni qabul qilishlari va uni boshqa bolalarga o'rgatishlari mumkin.

Xulosa

Demak, bolalar folklori janrlar rang-barangligi, asarlar badiiyati va son ko'lami jihatidan kattalarning og'zaki ijodi qatoridan munosib o'rin olishga loyiqdir. Bolalar folklori namunalari har bir xalqning o'z farzandi tarbiyasiga, binobarin, el-u yurtining kelajagiga o'ta mas'uliyat bilan yondoshganini va qanchalar e'tibor bilan qaraganini ko'rsatadi. Bu e'tibor, o'z navbatida, xalq ongida milliylikka xos xususiyatlari va ajdodlar xotirasiga hurmat tuyg'usining kuchli bo'lishiga olib kelgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizova, N. B. (2020). *Qiziqmachoqlarning janriy tabiati va badiiyati* [Avtoreferat PhD dissertatsiyasi]. Toshkent.
2. Adizova, O. I. (2023). *Frantsuz bolalar folklori tarixi va uning shakllanish omillari*. BuxDU.uz, 35 b.
3. Adizova, O. I. (2023). The exceptional in the works of Van Gennep. *International Journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research (IJSSIR), Special Issue (April)*, 121–126. <https://doi.org/> [agar DOI mavjud bo'lsa]
4. Avezov, S. (2004). *Sanama janri tabiati va badiiyati* [Avtoreferat nomzodlik dissertatsiyasi]. Toshkent.
5. Dor, R. (1996). Écrire l'oral, traduire l'écrit. In *L'écrit et l'oral dans le monde turc et ottoman* (REMM, 75–76, p. 51).
6. Dor, R. (2002). *Contes et légendes de Turquie* (Collection: Aux origines du monde). Paris.
7. Dor, R. (2005). *Sarah-Rose la rosophile; virelangues d'Ouzbek* (p. 8). Paris.
8. Istamovna, A. O. (2023, October 5). Fransuz va o'zbek folklorshunosligida marosim folklorining mavzuiy turlari. *International Scientific Conferences with Higher Educational Institutions*, 1(05.10).
9. Kamariddinova, M. E. (2022). The particularities of english teaching at preschool education establishment. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(6), 387-391.
10. Qurbonova, N. (1994). *O'zbek bolalar marosim folklori* [Avtoreferat nomzodlik dissertatsiyasi]. Toshkent.
11. Ruzmetov, H. (2005). *Xorazm bolalar folklori* [Nomzodlik dissertatsiyasi]. Toshkent.
12. Safarova, N. O. (2004). *O'zbek bolalar o'yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari* [Avtoreferat nomzodlik dissertatsiyasi]. Toshkent.
13. Turg'unov, Sh. D. (2019). *Namangan bolalar folklorining janrlar tarkibi va lokal xususiyatlari* [Avtoreferat PhD dissertatsiyasi]. Toshkent.
14. Van Gennep, A. (1924). *Le folklore: Croyances et coutumes populaires françaises*. Paris: Librairie Stock. (Édition complétée, 2009, Chicoutimi, Ville de Saguenay, Québec).